

QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGIDA DAVLAT BUDJETI MABLAG‘LARINING SAMARALI BOSHQARILISHI: ICHKI AUDIT VA NAZORATNING O‘RNI



Odiljon Hayitov

*Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
Ichki audit bo‘limi bosh mutaxassisi, Bank-moliya
akademiyasi magistranti*

Murojat uchun: odilkru@gmail.com (Tel:97-366-80-08)

Annotatsiya. Maqolada ichki audit va moliyaviy nazoratning ahamiyati, shuningdek, bu tartib-taomillarning Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligidagi o‘rni va roli tahlil qilinadi. Har ikkala mexanizmning tashkilotlar ichida samarali ishlashni ta‘minlashdagi roli, jumladan, moliyaviy resurslarni to‘g‘ri sarflash, hisobotlar ishlab chiqish va moliyaviy tranzaksiyalarning aniqligi va shaffofligini ta‘minlash kabi jihatlar xususida bayon qilinadi.

Аннотация. В статье анализируется значение внутреннего аудита и финансового контроля, а также их роль и место в Министерстве строительства и жилищно-коммунального хозяйства. Рассматриваются функции этих механизмов в обеспечении эффективной работы организаций, включая правильное расходование финансовых ресурсов, подготовку отчетности и обеспечение точности и прозрачности финансовых транзакций.

Annotation. The article analyzes the significance of internal audit and financial control, as well as their role and place in the Ministry of Construction and Housing and Communal Services. It discusses the functions of these mechanisms in ensuring the effective operation of organizations, including the proper expenditure of financial resources, the preparation of reports, and ensuring the accuracy and transparency of financial transactions.

Kalit so‘zlar: audit, ichki audit xizmati, moliyaviy nazorat, urbanizatsiya, pudrat tashkilotlari, shaharsozlik norma va qoidalari.

Ключевые слова: аудит, внутренняя аудиторская служба, финансовый контроль, урбанизация, подрядные организации, нормы и правила градостроительства.

Key words: audit, internal audit service, financial control, urbanization, contracting organizations, norms and rules of urban development.

Kirish

Davlatchilik tashkil bo‘libdiki budget mablag‘larini shakllanishi va uni maqsadli sarflanishi dolzarb masala bo‘lib kelgan.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida Davlat budjeti mablag‘laridan samarali va maqsadli sarflanishida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida ichki audit va moliyaviy nazoratning ahamiyatini va ularning budget mablag‘larining samarali sarflanishidagi o‘rnini tahlil qilishdan iborat. Ichki audit tizimi vazirlikda moliyaviy intizomni saqlash va budget mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, moliyaviy nazorat davlat budgetining samarali foydalanishini va resurslardan to‘g‘ri va aniq foydalanishni ta‘minlashga yordam beradi.

Vazirlik va idoralarda ichki audit xizmati faoliyatining tashkil etilishi hamda uning huquqiy va uslubiy asoslarini belgilanishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ–3231-son “Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 30-dekabrda PQ–4938-son “O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan bir qator vazirlik va idoralarda ichki audit tuzilmalari tashkil etildi.

Lekin, shunday bo‘lsada vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati faoliyatining huquqiy va uslubiy asoslari mavjud emasligi, ularning faoliyati faqat budget mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish bilan bog‘liq holatlarni aniqlashga qaratilganligi tufayli ushbu xizmatlarni ko‘rsatish faoliyatining samaradorligi chegaralanib qolgan edi.

O‘zbekistonda Davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budget intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budget tizimining shaffofligini oshirish, Davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat budgetini o‘rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustda “2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 506-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-son [qaroriga](#) muvofiq 2020-2024 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib

budjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash belgilandi.

Bundan ko‘rinadiki, Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini va natijadorligini oshirish maqsadida xalqaro standartlarga mos ichki nazorat va audit xizmatini, shuningdek, lozim darajadagi moliyaviy nazoratni amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga keldi.

Yuqoridagilar yuzasidan 2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar rejasida Ichki nazorat va ichki audit tizimini takomillashtirish yuzasidan bir qancha vazifalar belgilab berildi.

Yuqorida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 fevralda 128-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi 416-sonli “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” Qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qarorlar bilan:

- vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini tashkil etish asoslari va tartibi;
- ichki audit xizmatining vazifalari va funksiyalari;
- ichki audit xizmati xodimlariga qo‘yiladigan malaka talablari va ichki audit tadbirlarida ishtirok etishga cheklovlar;

- ichki audit xizmatlari tomonidan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini o‘rganish;

- ichki audit xizmatining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, ichki audit xizmati faoliyati bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash kabi tartiblari belgilab berildi.

Bugungi kunda vazirlik va idoralarda tashkil etilgan Ichki audit xizmatlari tomonidan budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Ichki audit tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda.

Ichki audit va moliyaviy nazoratning Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasidagi ahamiyati

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekistondagi muhim va keng tarmoqni qamrab oluvchi davlat organlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi mamlakatning uy-joy, kommunal xizmatlar, shahar qurilishlari va infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida ichki audit, aholi yashash punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqishda, shaharsozlik norma va qoidalarini ishlab

chiqishda hamda modernizatsiya ishlari va ijtimoiy infratuzilmalar sohasidagi loyihalarning moliyaviy nazoratida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Vazirlikning ijro etish faoliyatidagi har qanday xatolar yoki moliyaviy buzilishlar keyinchalik yirik miqyosdagi iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin, shunga ko‘ra ichki audit, masalan, davlatning rivojlantirish dasturlari ijrosi, grantlar va subsidiyalar bilan bog‘liq moliyaviy faoliyatlarni nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ichki audit, budget mablag‘larining to‘g‘ri taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qiladi. Uning yordamida tashkilotning moliyaviy holati va boshqaruv qarorlarining aniqligini ta‘minlanadi.

Bundan tashqari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida moliyaviy nazoratning samaradorligi, investitsiyalarning maqsadga muvofiq sarflanishi, davlat budgetidan ajratilgan mablag‘larning aniq va to‘g‘ri ishlatilishini va mazkur mablag‘larning umumiy moliyaviy xavf-xatarlardan muhofaza qilinishini ta‘minlaydi.

Bunday nazorat tizimlari vazirlikning moliyaviy faoliyatini shaffoflashtiradi va korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim omil bo‘ladi. Shu bilan birga, moliyaviy nazorat, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini ko‘rsatib, qurilish sohasidagi investitsiyalar va loyihalarning ishonchliligini ta‘minlaydi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligida Ichki audit va moliyaviy nazorat faoliyati

Vazirlikning markaziy apparatida Ichki audit bo‘limi 4 ta shtat birligidan iborat bo‘lib, bo‘lim tomonidan budget intizomini mustahkamlash va budget to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish va xo‘jalik hisobidagi muassasalarda moliyaviy xo‘jalik faoliyati yuzasidan 2023 yilda tasdiqlangan ish rejaga asosan 4 ta hamda rejadan tashqari 9 ta jami 13 ta nazorat tadbirlari, 2024 yilning 3-choragi uchun tasdiqlangan ish rejasiga asosan 8 ta hamda rejadan tashqari 17 ta jami 25 ta nazorat tadbirlari o‘tkazildi.

1-jadval

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Ichki audit bo‘limining 2023 - 2024 yillardagi faoliyati yuzasidan tahliliy ma‘lumot.

(mln.s
o‘mda
)

№	Hisobot davri	O‘tkazilgan nazorat tadbirlari soni	Jami aniqlangan noqonuniy harajatlar	shundan:		Profilaktika tadbirlari natijasida oldi olingan (bartaraf etilgan)
				ortiqcha to‘lovlar va noqonuniy xarajatlar	davlat xaridlari bo‘yicha tartib va taomillarni	

							buzilishi hamda boshqa holatlar		samarasiz xarajatlar	
			so ni	sum masi	so ni	sum masi	so ni	summ asi	soni	summ asi
1	2023 yil	13	20	27 014	4	18 844	10	7 446	6	724
2	2024 yil 9 oy	25	73	5 730	5	368	1	25	67	5 337
	Jami:	38	93	32 744	9	19 211	11	7 471	73	6 061

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Ichki audit bo‘limining 2023-2024 yillardagi faoliyatini tahlil qilgan holda, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Nazorat tadbirlarining samaradorligi: 2023-2024 yillarda o‘tkazilgan nazorat tadbirlarining soni va jamlami xisobida muvaffaqiyatli oldini olish ishlari amalga oshirilgan. 2024 yilda nazorat tadbirlari soni 25 tani tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 2 marotaba ko‘paygan.

2.Noqonuniy xarajatlar: 2023 yilda aniqlangan noqonuniy xarajatlar summasi 27 014 mln.so‘mga etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich sezilarli kamaygan – 5 730 mln.so‘mni tashkil etgan. Bu, ushbu yilda auditorlik va profilaktika ishlarining samaradorligini namoyon qiladi.

3.Profilaktika tadbirlarining ta’siri: 2023 yilda profilaktika tadbirlari natijasida bartaraf etilgan xarajatlar 18 844 mln. so‘mni tashkil etgan, bu esa umumiy aniqlangan noqonuniy xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan. 2024 yilda profilaktika tadbirlari natijasida samarasiz xarajatlar kamaygan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida budget mablag‘larini sarflanishida profilaktika ishlarining samarali yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki 2023 yilda o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari bilan bog‘liq nomutanosib holatlar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.04.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 214-sonli Qarori qabul qilinib tartibga solinishi ta’minlandi.

4. Davlat xaridlari va boshqa holatlar: 2023 yilda davlat xaridlari bo'yicha tartib buzilishiga olib kelgan 10 ta holatda 7 446 mln. so'm aniqlangan. 2024 yilda esa bu ko'rsatkich sezilarli kamayib, faqat 1 ta holatda 25 mln. so'm aniqlangan. Bu, davlat xaridlari tartibiga oid nazorat tadbirlari samarasini ko'rsatadi.

Jami, 2023-2024 yillardagi tahlillar, Ichki audit bo'limi faoliyatining faol va samaraliligini, profilaktika tadbirlari va nazorat mexanizmlarining yaxshilanganini ko'rsatmoqda. 2024 yilda noqonuniy xarajatlar soni va summasi kamaygan, bunda esa vazirlikning moliyaviy nazorat samaradorligining ortganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 12 fevralda budjet tizimi budjetlarining mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma qarori qabul qilindi.

Qo'shma qarorda vazirlik tizimidagi budjet tizimi budjetlari mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni olib borish bo'yicha Respublika Ishchi guruhi tarkibi, Hududiy ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi, Respublika va Hududiy ishchi guruhlari tomonidan budjet tizimi budjetlari mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni olib borish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar tartibi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tizimiga ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlandi.

Shuningdek, ushbu qo'shma qarorga asosan vazirlikning Ichki audit bo'limida "Masofaviy nazorat markazi" tashkil etilgan bo'lib, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga oid kelib tushgan **27 487 ta** holatda xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona milliy mehnat tizimi"ga kiritilmaganligi, pudrat tashkilotlarining reyting ko'rsatkichlarini shakllanishidagi xatoliklar va boshqa shu kabi risk tahlillari yuzasidan o'rganishlar o'tkazilib kelinmoqda.

Ichki audit bo'limi tomonidan o'tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida aniqlangan budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida 2024 yil mobaynida 25 ta ichki audit ob'ektlariga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berilgan. Jumladan,

- mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etgan holda, to'lovlar amalga oshirish;

- xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga qat'iy rioya etish;

-budjet mablag'larini, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'larni xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan muayyan maqsadlarga to'g'ri sarflanishi, shuningdek, pul mablag'lari va moddiy qimmatliklarning butligi ustidan muntazam nazorat qilish;

-asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mavjud debitor va kreditor qarzdorliklar holati va ularning kelib chiqish sabablari hamda manbalarini o'rganish orqali barcha turdagi debitor va kreditor qarzdorliklarni qisqartirish va ularning rozaga kelishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish yo'nalishidagi taklif va tavsiyalar ichki audit xizmati tomonidan berib kelinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimining samarali ishlashi, vazirlik faoliyatining ishonchli va shaffofligini ta'minlash bilan birga, bir qator muhim iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishga yordam beradi. Bu tizimlar amalga oshirilsa, quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin:

1. Moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi: Ichki audit va moliyaviy nazorat vazirlikning budjetini, mablag'lar sarfini va moliyaviy faoliyatlarni to'g'ri baholash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy jarayonlardagi xato va firibgarliklarni aniqlash, xatolarni bartaraf etish va moliyaviy nazoratni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Qurilish loyihalarining samarali amalga oshirilishi: Qurilish va kommunal xizmatlar loyihalari katta mablag' talab qiladi. Ichki audit va moliyaviy nazorat orqali har bir loyiha budjet bilan muvofiq ishlashi va belgilangan muddatlariga mos amalga oshirilishi ta'minlanadi. Bu loyihalarning sifatini oshirib, ularning moliyaviy samaradorligini ta'minlaydi.

3. Shaffoflik va axborot ochiqligi: Moliyaviy nazorat tizimi davlat mablag'larining aniq va to'g'ri sarflanishini ta'minlaydi. Bu aholi va biznes sektorlari uchun vazirlikning faoliyatini aniq va ishonchli qiladi, shuningdek, davlat va jamoat o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish: To'g'ri tashkil etilgan moliyaviy nazorat tizimi korrupsion xatarlarni kamaytiradi. Tahlil va audit orqali vazirlikning moliyaviy faoliyatlari yuqori darajada kuzatib boriladi, bu esa korrupsion harakatlarni aniqlash va profilaktika qilish imkonini beradi.

5. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik: Samarali ichki audit va moliyaviy nazorat bilan qurilish va kommunal xizmatlar sohasidagi loyihalarning ijtimoiy ahamiyati orttiriladi. Bu aholiga sifati yuqori va barqaror kommunal xizmatlar taqdim etish, yangilanishlar va modernizatsiya ishlari orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishga imkon yaratadi.

Shu tariqa, ichki audit va moliyaviy nazorat tizimi nafaqat vazirlikning moliyaviy holatini to'g'ri baholashga yordam beradi, balki jamiyatning ijtimoiy

talablariga javob berish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish maqsadida muhim instrument hisoblanadi.

Adabiyotlar va tadqiqotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustda "2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 506-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 fevralda 128-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi 416-sonli "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.04.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 214-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining ochiq ma'lumotlar bazasi (<https://mc.uz/uz/view-page/open-information>).
6. Axmedov, S. (2015). "Ichki audit va davlat organlarida moliyaviy nazorat". *O'zbekiston moliyasi* jurnali.
7. Davronov, M. (2018). "Moliyaviy nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari". *Iqtisodiy tadqiqotlar* jurnali.
8. Umarov, I. (2020). "Shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirishda moliyaviy nazorat". *Shahar iqtisodiyoti* jurnali.
9. Mo'minova G. S. (2018) "Ichki audit va moliyaviy nazorat: nazariy va amaliy muammolar".